QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voiti o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	



JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)



Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna

Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi,
g.f.f.d (PhD)

Email: irodandpi@gmail.com

ORCID: 0009-0008-3507-011X

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubi-g'arbiy O'zbekiston, xususan Navoiy viloyati misolida chorvachilik tarmoqlarini prognoz qilishning geografik jihatlari o'rganilgan. Mintaqaning tabiiy-iqlimiy sharoitlari, yer va suv resurslari, yaylov fondi, demografik omillar hamda infratuzilma holati chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: chorvachilik tarmoqlari, geografik omillar, prognozlash, ekonometrik model, tabiiy resurslar, yaylov, iqlim sharoiti, hududiy rivojlanish, ekologik barqarorlik, qishloq xo'jaligi.

Abstract. This article examines the geographical aspects of forecasting livestock sectors in Southwestern Uzbekistan, in particular, Navoi region. The natural and climatic conditions of the region, land and water resources, pasture fund, demographic factors, and the state of infrastructure are analyzed as the main factors influencing the development of livestock sectors.

Key words: livestock sectors, geographical factors, forecasting, econometric model, natural resources, pasture, climatic conditions, regional development, environmental sustainability, agriculture.

Аннотация. В статье рассматриваются географические аспекты прогнозирования развития животноводческой отрасли Юго-Западного Узбекистана, в частности Навоийской области. Анализируются природно-климатические условия региона, земельно-водные ресурсы, пастбищный фонд, демографические факторы и состояние инфраструктуры как основные факторы, влияющие на развитие животноводческой отрасли.

Ключевые слова: животноводческие отрасли, географические факторы, прогнозирование, эконометрическая модель, природные ресурсы, пастбища, климатические условия, региональное развитие, экологическая устойчивость, сельское хозяйство.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining janubi-g'arbiy hududlari, xususan Navoiy viloyati chorvachilikni rivojlantirish uchun muhim tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega. Mintaqaning keng yaylov maydonlari, nisbatan qulay iqlimiy sharoiti va chorva uchun zarur resurslarning mavjudligi chorvachilik tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. So'nggi yillarda mamlakatda qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiyalash, jumladan chorvachilikni ilmiy asosda boshqarish va prognozlash borasida muhim islohotlar olib borilmoqda. Biroq tabiiy resurslarning



cheklanganligi, iqlim o'zgarishlari, suv tanqisligi va infratuzilmaning nomutanosibligi chorvachilik tarmoqlarining geografik joylashuvi hamda istiqbolini aniq baholashni talab etadi. Shu sababli chorvachilikni prognoz qilishda geografik omillarni chuqur o'rganish va ularni ilmiy asosda tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Ushbu maqolada Navoiy viloyati misolida chorvachilik tarmoqlarining hozirgi holati tahlil qilinadi, ularni rivojlantirishga ta'sir etuvchi geografik omillar o'rganiladi hamda mavjud tendensiyalar asosida prognozlash amalga oshiriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda chorvachilik tarmoqlarini ilmiy asosda rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chorvachilik tarmoqlarini prognoz qilishda geografik omillarni tahlil qilish va hududiy xususiyatlarni hisobga olish ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. I.A. Xudoyberdiyeva va R.O. Utayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Navoiy viloyatida chorvachilik tarmoqlarining iqtisodiy-geografik tasnifi ishlab chiqilgan bo'lib, mualliflar tabiiy resurslardan foydalanish, iqlim sharoitlari, yaylovlarning joylashuvi va ishlab chiqarish infratuzilmasi chorvachilik rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslagan. Xudoyberdiyevaning boshqa ishlanmasida ham qoramolchilik tarmog'ini rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy omillar o'zaro bog'liqligi aniqlangan bo'lib, resurs salohiyati bilan ishlab chiqarish natijalari o'rtasidagi korrelyatsiya baholangan.

Isabek B. Murtazaev boshchiligidagi tadqiqotchilar Navoiy viloyati iqtisodiyotini samarali rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlab, mintaqaviy tarmoqlar, jumladan, chorvachilikda barqaror o'sishni ta'minlash uchun infratuzilma, innovatsion texnologiyalar va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini muhim omil sifatida ko'rsatgan. Ularning fikricha, tabiiy-geografik sharoitlardan oqilona foydalanish va ilmiy asoslangan rejalashtirish mintaqaviy ixtisoslashuvning asosiy garovidir.

I.L. Zaytsev o'zining sanoat iqtisodiyotiga oid asarida ishlab chiqarish tizimlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlarini umumlashtirib, prognozlashda iqtisodiy ko'rsatkichlarning aniqligini ta'minlash uchun statistik modellardan foydalanish zarurligini ta'kidlagan. Ushbu yondashuv chorvachilik tarmoqlarini iqtisodiy prognozlashda ham qo'llanilishi mumkin. Sh.I. Mustafakulov boshchiligidagi "Ekonometrika" qo'llanmasida esa iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda matematik va statistik usullarning qo'llanilishi, regressiya va korrelyatsiya modellari yordamida tarmoqning o'sish tendensiyalarini prognozlash metodikasi yoritilgan.

N.K. Komilova va N.F. Latipovlar shaharlarning ekologik holatini baholash bo'yicha mavjud metodik yondashuvlarni tahlil qilib, ekologik omillarni iqtisodiy tarmoqlar, jumladan chorvachilik rivojlanishida muhim determinant sifatida ko'rsatgan. Bu qarash chorvachilikni prognozlashda ekologik-geografik omillarni inobatga olish zarurligini tasdiqlaydi.


Yuqoridagi manbalar tahlilidan kelib chiqadiki, chorvachilik tarmoqlarini prognoz qilishda iqtisodiy, geografik va ekologik omillarni kompleks yondashuvda o'rganish zarur. Hududiy resurslar salohiyatini baholash, iqlim va infratuzilma ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda statistik modellardan foydalanish tarmoq rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashda asosiy ilmiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jalik tarmoqlari va ularda yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari aholi ehtiyojlarini qondirishda zarur soha hisoblanadi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Shu bois Navoiy viloyatida aholini chorva mahsulotlari bilan ta'minlash, sohada yangi ish o'rinlarini yaratish, chorvaning mahsuldorligini oshirish hamda chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish muhim sanaladi [1].

Chorva hayvonlari sonini prognozlash hududdagi yaylov resurslaridan unumli foydalanish, aholini go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, chorva mahsulotlari eksportini keng yo'lga qo'yish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi [2]. Navoiy viloyatida chorvachilik tarmoqlarini joylashtirish va sohani rivojlantirish yo'llarini aniqlash maqsadida

2000–2021-yillardagi chorvachilik tarmoqlariga oid statistik ma'lumotlar to'plangan. Shu asosda chorva yo'nalishlarining kelajakdagi istiqbol holati 2030-yilgacha bo'lgan davlat dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Natijada chorva yo'nalishlarining joylashuvi karta-sxemada tasvirlangan. Hududdagi chorva hayvonlarining soni 2000–2021-yillar dinamikasidan foydalanib, ekonometrik model usullari [3] orqali prognoz qilinadi va tekshiriladi, to'g'ri hisob-kitob hamda tahlil amalga oshiriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ushbu jarayonni ilmiy asosda aniqlash va chorvachilik tarmoqlarining barqaror rivojlanish yo'nalishlarini belgilashdan iborat (1-rasm).



1-rasm. Navoiy viloyatida chorvachilik yo'nalishlarining 2030-yilgacha prognozi

TAHLIL VA NATIJALAR

Navoiy viloyati chorvachilik tarmoqlarini joylashtirish va sohani rivojlantirishning hududiy jihatlarini o'rganishda iqtisodiy optimal modellashirish usulidan foydalanilgan [5]. Ushbu usul orqali olib borilgan sinovlar natijasida to'plangan ma'lumotlar asosida tuzilgan vaqt qatorlari trend tenglamalaridan foydalanilgan. To'g'ri chiziqli trend tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$y = bt + a.$$

Bu yerda: y – raqamli yillar uchun trendning tenglashtirilgan darajalari; t – vaqt qatorining darajalarini o'z ichiga olgan vaqt oraliqlari, ya'ni yillar; a , b – trend parametrlari.

a – trendning son jihatdan sanoq boshi sifatida qabul qilingan vaqt davri uchun o'rtacha tenglashtirilgan darajani ifodalovchi koeffitsiyent;

b – trendning vaqt birligi uchun qator darajalarining o'rtacha o'zgarishini tavsiflovchi koeffitsiyent.

Ushbu a va b parametrlarning qiymati eng kichik kvadratlar (EKK) usuli yordamida aniqlanadi. Buning uchun normal tenglamalar tizimi tuziladi [3]. Eng kichik kvadratlar usuli tenglamalar tizimi quyidagi matematik ifodalar asosida hisoblanadi:

$$\begin{aligned} an + b\sum t &= \sum y \\ a\sum t + b\sum t^2 &= \sum y \cdot t \end{aligned}$$

Mazkur usulni ikki o'zgaruvchi — t va y o'rtasidagi bog'lanishga nisbatan keltiramiz. Chiziqli trend tenglamalari taxminan bir maromda o'zgaruvchi tendensiyani, ya'ni darajalarning teng vaqt oraliqlaridagi mutlaq o'sishi yoki mutlaq kamayishining o'rtacha kattaligini aks ettiradi. Navoiy viloyatida yillar yakuniy holatiga ko'ra chorva hayvonlari sonini vaqt ko'rsatkichlarida aniqlashda quyidagi funksiyadan foydalaniladi:

$$Y = a - bt$$

Bu yerda a va b — qoramollar, qo'y-echkilar, yilqilar hamda tuyalar soni parametrlarini hisoblash uchun ishlatiladigan koeffitsiyentlardir.

Yirik shoxli qoramollar. Tadqiqot kuzatilmalari uchun tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:


$$\begin{aligned} 21a + 44253b &= 6965565 \\ 44253a + 89015975b &= 14025635187 \end{aligned}$$

Mazkur tenglamalar sistemasini yechib noma'lum parametrlarni topamiz:

$$a = -32397096,203, \quad b = 16263.342.$$


Trend tenglamasi ko'rinishi: $y = 16263.342t - 32397096$

Trend tenglamasi koeffitsiyenti $b = 16263.342$ vaqt t bir birlikka o'zgarganida natijaviy (y) ko'rsatkichni o'rtacha o'zgarishini ko'rsatadi. Bunday holda vaqt t bir birlikka o'zgarganida y o'rtacha 16263.342 ga o'zgaradi. Ushbu ko'rsatkichlarni qo'yidagi 1-rasmda tasvirlaymiz. Quyidagi rasmda y ni qiymatlari va y ning baholanayotgan qiymatlari solishtirilgan (2-rasm):



2-rasm. Navoiy viloyatidagi qoramollar sonining 2001-2021-yillar oralig'ida o'zgarish dinamikasi


Qo'y va echkilar soni bo'yicha ekonometrik tahlil uchun olingan statistik kuzatilmalardan foydalanib, trend ko'rinishini chiziqli qilib tanlandi (3-rasm).



3-rasm. Navoiy viloyatidagi qo'y va echkilar sonining 2001-2021-yillar oralig'ida o'zgarish dinamikasi


3-rasmda y ning haqiqiy qiymatlari va y ning baholangan qiymatlari solishtirilgan. Rasm tahlil natijalariga ko'ra, qo'y va echkilar soni o'rtasida korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlangan.

Qorako'l zotli qo'ylar bo'yicha ekonometrik tahlil jarayonida olingan statistik kuzatuv ma'lumotlari asosida trend chiziqli shaklda tanlangan. Quyidagi grafikda y ning haqiqiy qiymatlari va y ning baholangan qiymatlari solishtirilgan bo'lib, bunda qorako'l qo'ylar soni ham korrelyatsion aloqadorlikka ega ekani kuzatiladi (4-rasm).



4-rasm. Navoiy viloyatidagi qo'y va echkilar sonining 2001-2021-yillar oralig'ida o'zgarish dinamikasi

Tuyalar soni bo'yicha ekonometrik tahlil jarayonida olingan statistik kuzatuv ma'lumotlari asosida trend chiziqli shaklda tanlangan. Quyidagi rasmda y ning haqiqiy qiymatlari va y ning baholangan qiymatlari solishtirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, tuyalar soni o'rtasida aniq korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlangan (5-rasm).



5-rasm. Navoiy viloyatidagi tuyalar sonining 2001-2021-yillar oralig'ida o'zgarish dinamikasi

Otlar soni bo'yicha ham ekonometrik tahlil jarayonida olingan statistik kuzatuv ma'lumotlari asosida trend chiziqli shaklda tanlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, yilqilar soni o'rtasida korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlangan.

Approksimatsiya xatoligi. Trend tenglamasining sifatini baholash uchun o'rtacha nisbiy yaqinlashish xatosidan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkich model orqali hisoblangan qiymatlar haqiqiy statistik ma'lumotlarga qanchalik yaqinligini ifodalaydi. Ya'ni, modelning prognoz aniqligi va ishonchliligi shu xatolik darajasi orqali baholanadi.

$$\bar{A} = \frac{\sum |y_t - y_i| : y_i}{n} 100\%$$

Approksimatsiya xatoligi qiymati 5-7 foizlar oralig'ida bo'lsa trend tenglamasi kuzatilma qiymatlariga mos kelishini bildiradi:

$$\bar{A} = \frac{1.4636}{22} 100\% = 6.65\%$$

Xatolik 7 foizdan kichikligi sababli berilgan tenglamani trend sifatida foydalanish mumkin. Xatolikni o'lchamini yoki Y ko'rsatkichni prognozini to'g'riligini aniqlash uchun Teyla koeffitsiyentni hisoblaymiz:

$$K_T = \frac{\sqrt{\sum (y_i - \bar{y})^2}}{\sqrt{\sum y_i^2}}$$

$$K_T = \frac{14864338946.138}{2454489255633} = 0.00606$$

Ushbu ko'rsatkich 0 dan 1 gacha qiymat qabul qilinadi. Uning qiymati qancha 0 ga yaqin bo'lsa shuncha prognoz qiymatlari yaxshi hisoblanadi.

Interval prognoz.

Odatda prognoz qurilayotganida nuqtaviy prognoz bilan bir qatorda interval prognoz ham quriladi. Prognoz qilinayotgan ko'rsatkich o'rtacha kvadratik xatoligini aniqlaymiz:

$$Uy = y_{n+L} \pm K$$

bu yerda

$$K = t_a \cdot Sy \cdot \sqrt{1 + \frac{1}{n} + \frac{3(n+2L-1)^2}{n(n^2-1)}}$$

L – prognoz davri; u_{n+L} - (n + L) davr uchun model orqali qilingan prognoz; n – vaqtli qatordagi kuzatilmalar soni; Sy – prognoz qilinayotgan ko'rsatkich standart xatoligi; T_{tabl} - Styudent taqsimotining kritik qiymati (qiymatdorlik darajasi α va ozodlik darajasi n-2 orqali aniqlanadi). Styudent taqsimoti qiymatlari jadvalidan T_{tabl} ning qiymatini topamiz: $T_{tabl}(n-m-1; \alpha/2) = 2.423$

t = 2022 uchun prognoz qiymat:

$$y(2022) = 16263.342 \cdot 2023 - 32397096.203 = 503645.03$$

$$K_1 = 2.423 \cdot 27262.01 \sqrt{1 + \frac{1}{22} + \frac{3(22+2 \cdot 1-1)^2}{22(22^2-1)}} = 72203.75$$

Interval prognoz esa:

$$t = 2022: (431441.28; 575848.78)$$



t = 2023 uchun prognoz qiymat:

$$y(2023) = 16263.342 \cdot 2023 - 32397096.203 = 519908.37$$

$$K_2 = 2.423 \cdot 27262.01 \sqrt{1 + \frac{1}{22} + \frac{3(22+2 \cdot 2 - 1)^2}{22(22^2 - 1)}} = 73018.11$$

$$519908.37 - 73018.11 = 446890.26;$$

$$519908.37 + 73018.11 = 592926.48$$

$$y(2024) = 16263.342 \cdot 2024 - 32397096.203 = 519908.37$$

$$K_2 = 2.423 \cdot 27262.01 \sqrt{1 + \frac{1}{22} + \frac{3(22+2 \cdot 2 - 1)^2}{22(22^2 - 1)}} = 73018.11$$

$$519908.37 - 73018.11 = 446890.26;$$

$$519908.37 + 73018.11 = 592926.48$$

Interval prognoz:

$$t = 2024: (446890.26; 592926.48)$$

t = 2025 uchun prognoz qiymat:

$$y(2025) = 16263.342 \cdot 2025 - 32397096.203 = 536171.71$$

$$K_3 = 2.423 \cdot 27262.01 \sqrt{1 + \frac{1}{22} + \frac{3(22+2 \cdot 3 - 1)^2}{22(22^2 - 1)}} = 73890.2$$

$$536171.71 - 73890.2 = 462281.51;$$

$$536171.71 + 73890.2 = 610061.91$$

Interval prognoz:

$$t = 2025: (462281.51; 610061.91)$$

t = 2026 uchun prognoz qiymat:

$$y(2026) = 16263.342 \cdot 2026 - 32397096.203 = 552435.05$$

$$K_4 = 2.423 \cdot 27262.01 \sqrt{1 + \frac{1}{22} + \frac{3(22+2 \cdot 4 - 1)^2}{22(22^2 - 1)}} = 74818$$

$$552435.05 - 74818 = 477617.05;$$

$$552435.05 + 74818 = 627253.05$$

Interval prognoz:

$$t = 2026: (477617.05; 627253.05)$$

t = 2027 uchun prognoz qiymat:

$$y(2027) = 16263.342 \cdot 2027 - 32397096.203 = 568698.39$$

$$K_5 = 2.423 \cdot 27262.01 \sqrt{1 + \frac{1}{22} + \frac{3(22+2 \cdot 5 - 1)^2}{22(22^2 - 1)}} = 75799.48$$

$$568698.39 - 75799.48 = 492898.91;$$

$$568698.39 + 75799.48 = 644497.87$$

Interval prognoz:

$$t = 2027: (492898.91; 644497.87)$$

t = 2028 uchun prognoz qiymat:

Yuqoridagi matematik hisob-kitoblarga ko'ra 2030-yilgacha bo'lgan holat har yil chorva turlarining sonini o'zgarib borishida kuzatiladi. Bunga ko'ra qoramollar soni 617488.42 taga oshgani kuzatildi. Xuddi shu holatda qo'y-echkilar, qorako'l qo'ylari, tuyalar va otlar soni ham 2023-2030-yillar prognozi ishlab chiqildi.

Chiziqli trend tenglamasi koeffitsiyentlari to'g'risidagi gipotezalarni tekshirish.

Tenglama koeffitsiyentlari qiymatdorligini tekshirish uchun odatda Styudent kriteriysidan foydalaniladi.

1) t – statistika. Styudent kriteriysi.

$$T_{\text{tabl}}(n-m-1; \alpha/2) = (20; 0.025) = 2.423$$

$$t_a = \frac{a}{S_a}$$

$$t_a = \frac{16263.342}{916.144} = 17.752 > 2.423$$



ekanligidan a koeffitsiyent qiymatdorligi tasdiqlanadi.

$$t_b = \frac{b}{S_b}$$

$$t_b = \frac{32397096.2033}{1842831.878} = 17.5801 > 2.423$$

ekanligidan b koeffitsiyent qiymatdorligi ham tasdiqlanadi.

Trend tenglamasining qiymatdorligini tekshirish uchun esa Fisher kriteriysidan foydalaniladi.

2) F-statistika. Fisher kriteriysi.

Determinatsiya koeffitsiyenti qiymati $R^2=94.03$, ga teng. F-statistika qiymati:

$$F = \frac{R^2}{1-R^2} \frac{n-m-1}{m} = \frac{0.9403}{1-0.9403} \frac{22-1-1}{1} = 315.132$$

Jadvaldan $F_{kp}(1;20;0.05) = 4.35$ qiymatini topamiz, bu yerda m – tenglamadagi faktorlar soni ($m=1$).

$F > F_{kp}$ ekanligidan chiziqli trend tenglamasi qiymatdorligi tasdiqlandi.

Bu yerda Y – chorva hayvonlar soni – (Navoiy viloyatidagi yirik shoxli qoramollarning umumiy sonni); t – vaqt (yillar), ya'ni vaqtga bog'liqligi o'rganildi. Trend ko'rinishi chiziqli tanlandi. Uning parametrlari eng kichik kvadratlar usuli bilan baholanadi. Tenglamaning statistik ahamiyati determinatsiya koeffitsiyenti va Fisher kriteriysi yordamida tekshirildi. Aniqlanishiga ko'ra, o'rganilayotgan vaziyatda Y ning umumiy o'zgaruvchanligining 0,9403% vaqt parametrlarining o'zgarishi bilan izohlanadi. Shuningdek, model parametrlari statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Qo'y va echkilar, qorako'l zotli qo'ylar, tuyalar, otlar soni uchun ham xuddi shunday ekonometrik tahlillar o'tkazildi.


Endi hosil qilingan matematik modellar asosida chorva hayvonlar sonining kerakli yillargacha prognoz qilish imkoniyati paydo bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Chorva hayvon turlari soni bo'yicha matematik model natijalari

Qoramollar	$Y=16263x-32397096$	$R^2=0,94$
Qorako'l qo'ylari	$Y=20565,75x-3998311,07$	$R^2=0,55$
Qo'y-yechkilar	$Y= 52\ 121,87x-103\ 143\ 001,80$	$R^2=0,91$
Otlar	$Y = 369x-767907$	$R^2 = 0,62$
Tuyalar	$Y=99,172x-191426$	$R^2=0,5339$

Jadval muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Navoiy viloyatida 2000-2021-yillardagi chorva hayvonlar soni bo'yicha amaliy natijalardan foydalanib, 2022-2030-yillargacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi.




6-rasm. Navoiy viloyatidagi qoramollar, qorako'l qo'ylari, qo'y-yechkilar sonining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari (mln.bosh hisobida)

Yuqorida keltirilgan 6-rasmda viloyatdagi qoramollar, qorako'l qo'ylar hamda qo'y-yechkilar sonining 2022–2030-yillar oralig'idagi prognoz ko'rsatkichlari (million bosh hisobida) tasvirlangan. Chorva mollari orasida



qoramollar sonining yillar davomida o'rtacha 500 ming bosh miqdorida o'sishi kuzatilmoqda. Ushbu trendga ko'ra, 2022-yilda 0,50 million boshni tashkil etgan qoramollar soni 2030-yilga kelib 0,63 million boshga yetishi prognoz qilingan.

Shu bilan birga, qorako'l qo'ylar va qo'y-echkilar soni bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari qoramollarga nisbatan nisbatan pastroq o'sish sur'atiga ega. Xususan, 2030-yil oxiriga borib qorako'l qo'ylar soni 1,57 million boshdan 1,74 million boshga yetishi kutilmoqda. Qo'y-echkilar soni esa 2022-yilda 2,25 million bosh bo'lgan bo'lsa, 2030-yilga kelib 2,66 million boshga yetishi prognoz qilinmoqda (7-rasm).



7-rasm. Navoiy viloyatidagi otlar va tuyalar soning 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari (ming.bosh hisobida)

7-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda yilqilar sonining sezilarli darajada o'sishi kutilmoqda. Tuyalar sonining ko'payishi esa 9 yil davomida nisbatan past sur'atlarda kechishi mumkin. Bu holat tuyachilikning asosan Uchquduq tumanida rivojlanganligi bilan izohlanadi, natijada o'sish ko'rsatkichi sust bo'lgan. 2030-yilga kelib tuyalar soni 10 ming boshni, yilqilar soni esa 27,1 ming boshni tashkil etishi prognoz qilingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, chorva turlarining qisqa muddatli prognozida umumiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Prognoz davrida yaylovlarning holati hamda iqlim xususiyatlari 2001–2021-yillar ma'lumotlari asos qilib olingan. Ushbu tahlil natijasida chorva sonining yillar kesimidagi o'zaro aloqadorligi o'rganilgan.

Chorvachilik tarmog'ini hududiy joylashtirish va sohani takomillashtirishning istiqboldagi holatini aniqlash imkonini beruvchi iqtisodiy-matematik hamda uslubiy yondashuv asosida olingan ekonometrik modellardan foydalanilib, O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismida, ya'ni chorvachilikning barcha tarmoqlarini shakllantirish imkoniyati mavjud bo'lgan Navoiy viloyatida chorva mollari — qoramollar, qo'y-echkilar, qorako'l qo'ylar, tuyalar va yilqilar sonining barqaror o'sish tendensiyasi aniqlangan. Shu asosda chorvachilik yo'nalishlarining 2030-yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan bo'lib, ularga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar har tomonlama tadqiq etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Худойбердиева, И. А., and Р. О. Утаева. "Классификация сельскохозяйственных отраслей с экономико-географической точки зрения (на примере животноводства Навоийской области)." Экономика и социум 12-1 (127) (2024): 1155-1161.
2. Murtazaev, Isabek B., et al. "Some prospective directions of effective development of the economy of Navoi region." Psychology and education 58.1 (2021): 2047-2057.
3. Зайцев И.Л. Экономика промышленного предприятия: учебник для вузов. 3-е издание переработанное. — М.: ИНФРА-М, 2003. — 358с.
4. Мустафакулов Ш.И. ва бош. "Эконометрика" «Илмий техника ахбороти- пресс нашириёти» .Тошкент. 2017й. 12 бет.
5. Khudoyberdieva, I. Analyzing of Influential Factors for the Development of Livestock and their Significance in Navoi Region.
6. Komilova, N. K., & Latipov, N. F. (2022). Analysis of existing methodological approaches in assessing the quality of the environmental condition of cities. Экономика и социум, (12-1 (103)), 161-165.
7. Худойбердиева И.А. / Navoiy viloyatida qoramolchilikni rivojlantirishning iqtisodiy-geografik jihatlari. Географические исследования: инновационные идеи и перспективы развития. Сборник материалов международной научнопрактической конференции. № 2 (2022).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
